

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori – Hay’at raisi

A. Jumanazarov

2025-yil 11-fevral

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
Hay’ati yig‘ilishining 2-son bayoni**

2025-yil 11-fevral

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: A.Jumanazarov – O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori

Qatnashganlar: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi J.Shakarov, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorning birinchi o‘rinbosari A.Abdukayumov, direktor o‘rinbosarlari O.Tohirov, T.Mashanpin, boshqarma, bo‘lim boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari va hududiy bo‘limlari rahbarlari *(ro‘yxat bo‘yicha)*

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF–16-son Farmoni bilan belgilangan vazifalar va ularning ijrosini so‘z-siz ta‘minlash to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qaroriga asosan Agentlik va tizim tashkilotlarida ijro intizomini sifatli ta‘minlash to‘g‘risida.

3. Boshqa masalalar.

(Jumanazarov, Shakarov, Abdukayumov, Tohirov, Mashanpin, Gafurov, Xodjikariyev, Dodoev, Inagamov, Orifboev, Asqarov, Alisherov, Usmanov, Saidoripov, Kattaxodjaev, Qodirov, Zakirov, Jumanazarov)

Joriy yilning 10-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri rahbarligida Xitoy Xalq Respublikasi bilan oliy va yuqori darajadagi tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar samaradorligiga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda mazkur yo‘nalishda erishilgan kelishuvlar bo‘yicha yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi ta’kidlandi.

Joriy yilning 10-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasida Ijro intizomiga bag‘ishlangan tanqidiy yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda Davlatimiz Rahbari tomonidan 2024-yilning noyabr-dekabr oylarida hudud va tarmoqlar bo‘yicha qator yig‘ilish va taqdimotlar o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarda berilgan topshiriqlar bajarilishi holati muhokama qilindi.

Agentlikda joriy yilning 11-fevral kuni BMT Taraqqiyot Dasturining (UND) O'zbekistondagi doimiy vakili bilan uchrashuv bo'lib o'tganligi va uchrashuvda ko'rib chiqilgan masalalar bilan qisqacha tanishtirib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmoni bilan belgilab berilgan topshiriqlar birma-bir muhokama qilinib, topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash bo'yicha mas'ul ijrochilar hisoboti eshitildi.

Shuningdek, bizning davrimizda ma'naviy qadriyatlarga turli taxdid kuchayib bormoqda. O'zlikni saqlashga xatarlar oshib borayotir. Bu jarayonda farzandlar kamolotiga loqaydlik bilan qarab bo'lmaydi. Buning uchun yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishimiz zarur. Toshkent shahar Hokimi Shavkat Umurzoqov Toshkent shahrida milliylikni targ'ib qilishga doir qaror imzolagani, unga ko'ra, milliy liboslar va milliylikni targ'ibotini o'z ichiga olgan "Milliy Toshkent" loyihasi amalga oshirilishi va shahardagi davlat ishxonalari xodimlariga milliy liboslarda yurish tavsiya etilganligi aytib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan eshitilgan mutasaddi rahbarlarning hisobotlarini, shuningdek mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi takliflarni muhokama qilgan holda, yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmoni **ijro uchun qabul qilinsin.**

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash yuzasidan "nazorat reja"si **ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

v) Agentlikning boshqarma, bo'lim hamda tizim tashkilotlari mas'ul rahbarlarining mazkur yig'ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan hisoboti;

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar, davlat tili va ilmiy tadqiqot masalalari bo'yicha maslahatchisi lavozimiga N.Mamadaliyeva tayinlanganligi;

Xotin-qizlar kuni munosabati bilan joriy yilning 13-fevral kuni f-m.f.d., professor Muxayyo Rasulova va q.x.f.d., professor Dilfuza Egamberdievalar bilan Agentlikda uchrashuv o'tkazilishi rejalashtirilganligi. Shuningdek, uchrashuvda "O'zTest" DMning Andijon filiali xodimining ilmiy tadqiqotlar bo'yicha taqdimot o'tkazishi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Agentlikning bo‘linma boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari:

2025-yil fevral oyida “Ijro.gov.uz” elektron tizimida bajarilishi belgilangan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni tasdiqlangan “Kalendar grafik” va “Yo‘l xarita”ga asosan muddatidan oldin va sifatli ijrosini **ta’minlasin**;

ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini belgilangan tartibda hamda iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy yondashgan holda o‘z vaqtida, puxta va sifatli tayyorlab, Hukumatga kiritish uchun **shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin**;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-16-son Farmonida belgilangan topshiriqlar ijrosini bayonning ilovasi bilan tasdiqlangan “nazorat reja”ga asosan o‘z vaqtida va sifatli **ta’minlasin**;

“Milliy Toshkent” loyihasi doirasida Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlariga ish xaftasining maqbul kunlari milliy liboslarda yurish tavsiya etilsin;

joriy yilning 15-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidentining iqtisodiy-ijtimoiy siyosat bo‘yicha davlat maslahatchisi R.A.Gulyamovning Agentlikka tashrifi doirasida:

bir kun muddatda 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar, 2025-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar va mavjud muammo va takliflar bo‘yicha ma’lumotlarni **puxta tayyorlab**, Agentlikning Strategik rivojlantirish, metodologiya va yig‘ma axborot-tahlil bo‘limi (Sh.Ibragimov)ga **taqdim etsin**.

SRMvaYATB (Sh.Ibragimov) mas’ul ijrochilar tomonidan taqdim etilgan muammolarni tahlil qilgan holda rahbariyatga ma’lumot **kiritsin**.

3. “Ijro.gov.uz” elektron tizimida fevral oyida muddati o‘tgan topshiriq mavjudligi va ijro-intizomi nazoratini ta’minlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun INMBIvaDB boshlig‘i Z.Gafurov **ogohlantirilsin**.

INMBIvaDB (Z.Gafurov) Agentlikka yuklatilgan qokunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida bajarilishida nazoratni **kuchaytirsin**.

4. Direktor o‘rinbosari (O.Tohirov), **MBBTSAOB** (A.Dodoev), **“O‘zTest” DM** (J.Kattaxodjaev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi PQ-407-son qarori 5-ilova, 57.1-banddiga asosan Issiqlikka chidamli kabel mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayonini hududlarda tashkil etish yuzasidan tegishli hujjat loyihasini qisqa muddatda **ishlab chiqsin** va “Ijro.gov.uz” elektron tizimidan nazoratdan yechish **choralarini ko‘rsin**.

5. XXvaIB (Orifboev) va tizim tashkilotlari rahbarlari:

Ikki kun muddatda 2025-yilda rejalashtirilgan **13 ta** xorijiy davlatlar (Sloveniya, Slovakiya, Malayziya, Belgiya, Birlashgan Arab Amirli, Koreya Respublikasi, Turkiya, Misr, Fransiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Quvayt, Vengriya, Ozarbayjon) tashriflari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotni **tayyorlab**, rahbariyatga **kiritsin**;

2025-yilda rejalashtirilgan **13 ta** xorijiy davlatlar tashriflari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni **jadallashtirsin**.

6. SRTSAOvaEKB (S.Kasimov), **MBBTSAOB** (A.Dodoev), **TRvaSBDAOB** (D.Xodjikaev), **MTJEMB** (A.Asqarov), **DNMB** (U.Muxitdinov), **MRvaO'BYaTB** (X.Alisherov), **"O'zTest" DM** (J.Kattaxodjaev) va **"Akkreditatsiya markazi" DM** (A.Zakirov)lar **2025-yil mart yakuniga qadar** 2025-yilda tashrifi rejalashtirilgan **13 ta** xorijiy davlatlar o'rtasida amalga oshirilgan eksport va import savdo aylanmasi bo'yicha tahlillar **o'tkazsin** hamda natijasi bo'yicha rahbariyatga ma'lumot **kiritsin**.

7. Yuridik byuro (A.Kamilov) va **tizim tashkilot** rahbarlari **besh kunlik muddatda** o'zlarining Ilmiy Kengash Nizomlarini belgilangan tartibda **ishlab chiqsin** hamda Agenlik rahbariyatiga tasdiqlash **uchun kiritsin**.

8. Direktor o'rinbosari (T.Mashanpin):

RvaAXTB (F.Usmenov) **bir hafta muddatda** agentlikning yangi logotipi va muvofiqlik belgisini loyihasi yuzasidan takliflarni **ishlab chiqib**, rahbariyatga **kiritsin**;

RvaAXTB (F.Usmenov) Agentlikning tizim tashkilotlari bilan birgalikda **bir hafta muddatda** davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish yuzasidan takliflar **ishlab chiqib**, rahbariyatga **kiritsin**.

9. INMBI va DB (Gafurov) mazkur bayonda belgilangan topshiriqlar ijrosini qat'iy nazoratga olsin hamda rahbariyatga **ma'lumot kiritib borsin**.

10. Mazkur bayonning ijrosi ustidan nazorat Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari **A.Abdukayumov**, direktor o'rinbosarlari **O.Tohirov, T.Mashanpin** zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "**Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida**" 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmonda belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash yuzasidan
NAZORAT-REJA

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
Farmonning qaror qismi					
1.	16-band. Energiya samarador materiallarni mamlakatimizda ishlab chiqarish hajmini oshirish va ulardan keng foydalanish bo'yicha dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritish. <i>Muddat:</i> ikki oy (2025-yil 30-mart). <i>Mas'ullar:</i> Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Savdo-sonoat palatasi.	1. Energiya samarador materiallarga oid xalqaro va respublikada amalda bo'lgan standartlarni xatlovdan o'tkazish. 2. O'rganish va xatlov natijalari asosida dastur loyihasiga takliflar ishlab chiqish. 3. Takliflarni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritish.	2025-yil 15-mart	TR va SBDAOB (D.Xodjikariev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov)
Farmonning 4-ilovasi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi", 48-maqсад Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirishva hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish"					
2.	10-band. Milliy shaffoflik tizimi doirasida issiqxona gazlarini mustaqil tekshirish tashkiloti (validatsiya va verifikatsiya kompaniyasi) faoliyatini yo'lga qo'yish. <i>Amaliy chora tadbirlar:</i> Issiqxona gazlari ajratmalarini tekshirish tashkilotini (validatsiya va verifikatsiya kompaniyasi) belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazish. <i>Muddat:</i> 2025-yil dekabr.	1. Xodimlarni ISO/IEC 17029 xalqaro standartini joriy qilish bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish. 2. ISO/IEC 17029 xalqaro standartiga ko'ra validatsiya va verifikatsiya qiluvchi idoralarning kompetentligiga qo'yilgan talablar hamda ISO 14065 atrof-muxitga tegishli ma'lumotlarni validatsiya va verifikatsiya qiluvchi idoralarga nisbatan umumiy tamoyil va talablar xalqaro	2025-yil mart-may 2025-yil iyun-iyul	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" (A.Zakirov)	Direktor o'rinbosari (O.Tohirov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	Mas'ullar: Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), Yashil iqtisodiyot markazi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).	standartlari asosida akkreditatsiya sxemasini ishlab chiqish. 3. ISO/IEC 17029 xalqaro standarti doirasida baholovchi va texnik ekspertlarni tayinlash hamda ularni xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan akkreditatsiya jarayonlarida malaka va tajribasini oshirish imkoniyatini yaratish. 4. Issiqxona gaz ajratmalarini validatsiya va verifikatsiya qiluvchi tashkilot arizasiga muvofiq akkreditatsiya qilish.	2025-yil avgust – sentyabr 2025-yil oktyabr		
3.	15-band. O'zbekiston qora metallurgiya sanoatini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. Amaliy chora tadbirlar: Qora metallurgi sanoatini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va Vazirlar Maxkamasiga kiritish. Bunda: metallurgiya korxonalarini qora metall xomashyosi bilan barqaror ta'minlanishi; qora metall prokati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirishni; import qilinadigan butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar va materiallarni mahalliyashtirishni; energetika, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va qurilish sohalari uchun metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni o'zlashtirishni nazarda tutish. Muddat: 2025-yil may. Mas'ullar: Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi (B.Islamov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L.Qudratov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov),	1. Qora metallurgiya sanoatini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish. 2. Metallurgiya sanoatiga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni hatlovdan o'tkazish. 3. Tahlil natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga yuborish.	2025-yil 7-mart 2025-yil 2-aprel 2025-yil 10-aprel	TR va SBDAOB (D.Xodjkariev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	<i>O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).</i>				
4.	44-band. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan jamoat transporti ehtiyojlari uchun transport vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Amaliy chora tadbirlar: Respublikamizda elektrobus, avtobus va mikroavtobuslar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganib, mahalliy tadbirkorlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish hisobiga ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish loyihalarini boshlash. Moliyalashtirish manbalari: Xorijiy investitsiyalar va tadbirkorlar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari Muddat: 2025-yil dekabr. Mas'ullar: "O'zavtosanoat" AJ (U.Rozukulov), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L.Qudratov), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), Andijon viloyati va Toshkent shahar hokimliklari.	1. Respublikada elektrobus, avtobus va mikroavtobuslar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganib Vazirlar Mahkamasining 25.04.2017-yildagi 237-son qarori talablaridan kelib chiqqan holda tegishli takliflarni tayyorlash. 2. Tayyorlangan takliflarni "O'zavtosanoat" AJ va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritish.	2025-yil may 2025-yil iyun	MBBTSAOB (A.Dodoev), "O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev)	Direktor o'rinbosari (O.Tohirov)
5.	58-band. Soha va tarmoqlar bo'yicha amaldagi 3 074 ta standartning Jahon savdo tashkiloti talablariga masligini ko'rib chiqish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari taklifiga asosan ko'rib chiqiladigan amaldagi standartlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Ro'yxatga muvofiq JST talablari asosida tahlillarni o'tkazish. 3. Tahlil natijalari asosida standartlarni Jahon savdo tashkiloti talablariga mosligi to'g'risida xulosa tayyorlash. 4. Xulosa natijalari asosida Standartlashtirish dasturini shakllantirish. Muddat: 2025-yil davomida. Mas'ullar: Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L.Qudratov), Manfaatdor vazirlik va idoralar,	1. Tegishli vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari bilan soha va tarmoqlar bo'yicha amaldagi 3 074 ta standartning ro'yxatini shakllantirish. 2. 3 074 ta standartni JST talablari asosida tahlilini o'tkazish va xulosa tayyorlash. 3. 3 074 ta standartning Xulosa natijalaridan 2026-yilning standartlashtirish dasturini shakllantirishda foydalanish.	2025-yil fevral-mart 2025-yil aprel-avgust 2025-yil sentyabr-oktyabr	Standartlar instituti (D.Qodirov), TR va SBDAOB (D.Xodjikev),	Direktorning birinchi o'rinbosari A.Abdukayumov

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	<i>O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).</i>				
6.	59-band. Yangi xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Tegishli vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari taklifiga muvofiq 1 700 ta xalqaro (mintaqaviy) standartni xarid qilish. 2. Standartlarni davlat tiliga tarjima qilish uchun O'zbekiston standartlar institutiga zarur mablag'larni ajratish. 3. Xalqaro (mintaqaviy) standartlarni o'rnatilgan tartibda qabul qilish. 4. ISO, Global GAP, FDA, Halal, Organic kabi xalqaro standartlarni 1 334 ta korxonada joriy etilishini tashkil etish. Moliyalashtirish manbalari: O'zbekiston standartlar institutining hisob-kitoblariga asosan. Muddat: 2025-yil davomida. Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).	1. Tegishli vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari uchun dolzarb bo'lgan 1 700 ta xalqaro va Yevropa standartlar ro'yxatini shakllantirish; 2. Xalqaro va Yevropa standartlarni xalqaro tashkilotlardan olish choralari ko'rish. 3. Xalqaro va Yevropa standartlarni tarjima qilish uchun O'zbekiston standartlar institutiga Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJning jamg'armasidan zarur mablag'larni ajratish. 4. Xalqaro va Yevropa standartlarni qabul qilish choralari ko'rish. 5. ISO, Global GAP, FDA, Halal, Organic kabi xalqaro standartlarni 1 334 ta korxonada joriy etilishini tashkil etish.	2025-yil 15-fevral 2025-yil 10-mart 2025-yil mart-aprel 2025-yil mart-noyabr 2025-yil davomida	Standartlar instituti (D.Qodirov), TR va SBDAOB (D.Xodjikaev) MTJQMB (A.Asqarov), "O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov), Direktor o'rinbosari (O.Tohirov)
7.	60-band. Respublikada xalqaro darajada tan olingan, sinovlar ishochliligini ta'minlashga xizmat qiluvchi hamda xorijiy davlatlar amaliyotidan ijobiy samara bergan akkreditatsiya xizmatlarini joriy etish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Milliy akkreditatsiya tizimida ko'rsatilayotgan va xalqaro darajada tan olingan akkreditatsiya xizmatlarini oshirish va 14 taga yetkazish. 2. Xalqaro tajribaga asoslangan va ILAC talablaridan kelib chiqib, malakani tekshirish	1. Yangi joriy qilinayotgan akkreditatsiya sxemalari doirasida baholovchi va texnik ekspertlarni tayyorlash maqsadida treyninglar tashkil etish. 2. Joriy qilinayotgan har bir akkreditatsiya sxemasi bo'yicha baholovchilar va texik ekspertlarni tayinlash hamda Milliy akkreditatsiya tizimi reestriga kiritish choralari ko'rish.	2025-yil aprel-may 2025-yil may	"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" (A.Zakirov)	Direktor o'rinbosari (O.Tohirov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	provayderlarini ISO/IEC 17043, tibbiy tashxis laboratoriyalarini ISO 15189, inspeksiya organlarini ISO/IEC 17020 xalqaro standartlar bo'yicha akkreditatsiya qilish xizmatlarini joriy qilish. Moliyalashtirish manbalari: O'zbekiston standartlar institutining hisob-kitoblariga asosan. Muddat: 2025-yil davomida. Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Xudoyarov), manfaatdor vazirlik va idoralar.	3. Xorijiy davlatlarning tajribali akkreditatsiya idoralari tomonidan o'tkaziladigan akkreditatsiya jarayonlarida Markaz baholovchilarini qatnashish imkoniyatini yaratish. 4. Yangi tashkil etilayotgan har bir akkreditatsiya sxemasi bo'yicha akkreditatsiya xizmatlarni joriy etish va belgilangan tartibda arizachilarni akkreditatsiya qilish. 5. Yangi tashkil etilgan akkreditatsiya sxemalari bo'yicha akkreditatsiya qilingan sub'ektlarni Milliy akkreditatsiya tizimi restriga kiritib borish.	2025-yil may – iyun 2025-yil davomida Akkreditatsiya natijalariga ko'ra		
8.	61-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Quyosh panellar, sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalari mavjud rivojlangan davlat tajribasini o'rganish va hamkorlikni yo'lga qo'yish. 2. Mazkur laboratoriyalarni respublikada tashkil etish uchun talab etiladigan uskunalar ro'yxatini shakllantirish. 3. Quyosh panellar sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish. Qishloq xo'jaligi texnikalari ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi	1. Xalqaro standartlarga muvofiq uskunalarning texnik topshirig'ini ishlab chiqish. 2. Uskunalarining yetkazib beruvchi korxona aniqlash. 3. Zaruriy uskunalarni xarid qilish yuzasidan moliyalashtirish choralari ko'rish. 4. Sinov laboratoriya xodimlarni o'qitish. 5. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 1. Xalqaro standartlarga muvofiq uskuna texnik topshirig'ini ishlab chiqish.	2025-yil fevral 2025-yil mart-aprel 2025-yil iyun-iyul 2025-yil dekabr 2025-yil har chorakda 2025-yil fevral	“O'zTest” DM (J.Kattaxodjaev), MBBTSAOB (A.Dodoev), XXB (A.Orifboev)	Direktor o'rinbosari (O.Tohirov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish. Moliyalashtirish manbalari: Xorijiy investorlar Muddat: 2025-yil davomida Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "O'zavtosanoat" AJ, Manfaatdor vazirlik va idoralar.	2. Uskunani yetkazib beruvchi korxona va investorlar aniqlash. 3. Investor grafigi asosida zaruriy uskunalarni xarid qilish yuzasidan moliyalashtirish choralarini ko'rish. 4. Uskunani o'rnatish, xodimlarni tayyorlash, sinov laboratoriyasini tayyorlash. 5. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar mahkamasiga ma'lumot kiritish	2025-yil mart-aprel 2025-yil avgust 2025-yil avgust 2025-yil har chorakda		
	Sovitkich va muzlatkichlar sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish.	1. Xalqaro standartlarga muvofiq uskuna texnik topshirig'ini ishlab chiqish. 2. Uskunani yetkazib beruvchi korxona va investorlar aniqlash. 3. Investor grafigi asosida zaruriy uskunalarni xarid qilish yuzasidan moliyalashtirish choralarini ko'rish. 4. Uskunani o'rnatish, xodimlarni tayyorlash, sinov laboratoriyasini tayyorlash. 5. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar mahkamasiga ma'lumot kiritish.	2025-yil fevral 2025-yil mart-aprel 2025-yil avgust 2025-yil sentyabr 2025-yil har chorakda		
9.	62-band. Milliy etalonlar bazasini kengaytirish va ularning umumiy sonini 51 taga yetkazish Amaliy chora tadbirlar:	1. Xorijiy tajribani o'rgangan holda etalonlarning texnik topshiriqlarini ishlab chiqish; 2. Ishlab chiqilgan texnik topshiriqlarni o'rnatilgan tartibda Moliya va iqtisodiyot	2025-yil fevral 2025-yil aprel	"O'zMMI" DM (L.Saidaripov), MRvaO'BYaTB (X.Alisherov)	Direktorning birinchi o'rinbosari A.Abdukayumov

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	1. Yangi milliy etalonlar yuzasidan texnik topshiriqlarni ishlab chiqish. 2. 9 ta etalonlarni qonunchilik xujjatlarida belgilangan tartibda xarid qilish. Muddat: 2025-yil davomida. Moliyalashtirish manbalari: Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (A.Xaydarov).	vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKdan ekspertizadan o'tkazish; 3. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq tender savdolarini o'tkazish; 4. Tender savdolari natijasiga ko'ra g'olib deb topilgan korxona bilan belgilangan tartibda shartnoma rasmiylashtirish; 5. Etalonlarni byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish choralari ko'rish	2025-yil iyul 2025-yil iyul 2025-yil avgust		
Farmonning 4-ilovasi "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi", 56-maqсад "Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish"					
10.	63-band. Iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish samaradorligini oshirish maqsadida 1 dekabrden boshlab "Iste'molchi murojaati" elektron tizimini joriy etish. Amaliy chora tadbirlar: Mazkur "Iste'molchi murojaati" elektron tizimi orqali barcha iste'molchilarning murojaatlarini qabul qilish va barcha bosqichlarda monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish. Iste'molchilarning murojaatlarini tizim orqali onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlik sub'ektiga yo'naltirish va xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan masala hal etilishiga erishish. Shuningdek, tizimda onlayn ravishda korxonalarning murojaatlarni hal etish bo'yicha reytingini shakllantirib borish. 1. 2025-yil sentyabr oyida texnik yo'riqnoma ishlab chiqilib, ekspertizadan o'tkazish.	1. "Iste'molchi murojaati" elektron tizimini joriy etish bo'yicha taklif ishlab chiqish va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasiga taqdim. 2. "Iste'molchi murojaati" elektron tizimiga Agentlikning tegishli axborot tizimini integratsiya qilish bo'yicha bitim va texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Axborot tizimlarini Raqamli hukumatning Idoralararo integratsion platformasi orqali o'zaro integratsiya qilish.	2025-yil fevral 2025-yil iyun 2025-yil oktyabr	RvaAXTB (F.Usmanov)	Direktor o'rinbosari (T.Mashanpin)

T/r	Ustuvor vazifalar (<i>Farmon</i>)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	2. 2025-yil noyabr oyida test rejimida ishga tushirish. 3. 2025-yil dekabr oyida to‘liq ishga tushirish. Natijada iste'molchilarning murojaatlarini ko'rib chiqishda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat organlarining aralashuvi kamayishiga erishish. Moliyalashtirish manbalari: Ijrochilar mablag'lari Muddat: 2025-yil dekabr Mas'ullar: Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (A.Qayumov), Raqamli texnologiyalar vazirligi, Prezidentning Xalq qabulxonasi, Bosh prokuratura, Soliq qo'mita, Adliya vazirligi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov), Qurilish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ekologiya vazirligi, Savdo-sanoat vazirligi, Biznes-ombudsman (D.Qosimov).				
Farmonning 6-ilovasi “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishi bo‘yicha 2025 yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar. “55-maqсад “Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish”					
11.	48-band. Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 5 mingtaga yetkazish. Muddat: 2025-yil (1-chorak-121 ta, 2-chorak-320 ta, 3-chorak-440 ta, 4-chorak-453 ta). Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Savdo-sanoat vazirligi.	1. Menejment tizimlari joriy etiladigan mahalliy korxonalar ro'yxatini shakllantirish; 2. Menejment tizimlari joriy etiladigan korxonalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklari bilan birgalikda tarmoq jadvallar ishlab chiqish va tasdiqlash; 3. Tasdiqlangan tarmoq jadvallariga asosan korxonalarga menejment tizimlarini joriy etish.	2025-yil fevral 2025-yil davomida	MTJQMB (A.Asqarov), “O‘zTest” DM (J.Kattaxodjaev)	Direktor o‘rinbosari (O.Tohirov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
		4. 2025-yilda jami 1 334 ta menejment tizimlarini joriy etish.	2025-yil har chorakda		
Farmonning 8-ilovasi “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish”. 66-maqсад “Respublika ekalogik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekalogik muammolarni bartaraf etish”					
12.	2-band. 2025-2027-yillarga mo'ljallangan plastik bilan ifloslanishni kamaytirish bo'yicha Milliy dastur loyihasi. <i>Normati-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar:</i> loyihada: 2027-yil yildan boshlab plastik paketlarni ishlab chiqarish, olib kirish va ulardan foydalanishni taqiqlash hamda ekalogik jihatdan zararsiz (bioparchalanuvchi) paketlardan foydalanishni rag'batlantirish; Plastik mahsulotlarning kimyoviy tarkibidagi zararli moddalardan foydalanishni cheklash; Qadoqlarda qayta ishlangan plastikdan foydalanish ko'effitsientlarini belgilash nazarda tutiladi. Muddat: 2025-yil noyabr. Mas'ullar: Ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (A.Abduxakimov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I.Norqulov), Bojxona qo'mitasi (A.Mavlonov), Soliq qo'mitasi (Sh.Qudbiev), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).	1. Plastik paketlarni ishlab chiqarish, olib kirish va ulardan foydalanishni taqiqlash hamda ekalogik jihatdan zararsiz (bioparchalanuvchi) paketlarga tegishli xalqaro talablarni o'rganish. 2. Plastik mahsulotlariga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni hatlovdan o'tkazish. 3. Yangi tahrirdagi Qadoqlar xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament loyihasiga qayta ishlangan plastikdan foydalanish ko'effitsientlari xavfsizlik talablari kiritilganligi to'g'risida ma'lumotlarni Ekalogiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga yuborish.	2025-yil 30-may 2025-yil 25-iyun 2025-yil 29-avgust	TR va SBDAOB (D.Xodjkariev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov)
13.	9-band. Ko'p qavatli turar joylarni loyihalash, qurilish va foydalanishga qabul qilishda shaharsozlik resurslaridan oqilona foydalanish va xavfsiz muhit yaratish nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi. <i>Normati-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan tadbirlar:</i> loyihada: ko'p qavatli turar joylarni loyihalash, qurilish va foydalanishga qabul qilishda; Yer osti avtomobil turargohlarini nazarda tutish;	1. Elektromobillarni quvvtlash stansiyalari, bazalt asosidagi issiqlikni saqlovchi materiallarga doir amaldagi standartlarni xatlovdan o'tkazish. 2. Xatlov natijalari va xalqaro standartlarni o'rganish natijasida takliflar ishlab chiqish. 3. Takliflarni normativ-huquqiy hujjat loyihasiga kiritish uchun Qurilish va uy-	2025-yil 20-avgust	TR va SBDAOB (D.Xodjkariev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari A.Abdukayumov

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	avtomobil turargohlarida normativlarga muvofiq elektromobillarni quvvtlash stansiyalarini o'rnatish; oqova, yomg'ir va texnik suvlardan sug'orishda foydalanish tizimlarini majburiy etib belgilash; sanitar qurilmalarning suv sig'imini 3-6 litr etib belgilash; binolarning devorlarini bazalt asosidagi issiqlikni saqlovchi materiallar bilan qoplash; is gazidan ogohlantiruvchi qurilmalar bilan jihozlash; ikki manbadan iborat (texnik va ichimlik) suv ta'minoti bilan jihozlash kabi talablar nazarda tutiladi. Muddat: 2025-yil sentyabr Mas'ullar: Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Sh.Xidoyatov), Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Quldoshev), "O'zsuvta'minot" AJ (A.Suvonqulov), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A.Jumanazarov).	joy kommunal xo'jaligi vazirligiga kiritish.			
Farmonning 13-ilovasi "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish". 93-maqsad "Jaxon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish"					
14.	13-band. Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni yakunlash. 1. JSTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar o'tkazish.	1. JSTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni o'tkazish choralarini ko'rish. 2. Ichki qonunchilikni JST normalariga moslashtirish bo'yicha treyning-seminarlar tashkil etish.	2025-yil 15-mart	XXB (A.Orifboev), TR va SBDAOB (D.Xodjikev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov), Direktor o'rinbosarlari

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	2. JSTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlab, ichki qonsnchilikni moslashtirish, yangi standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtirish.	1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida zarur bo'lgan standartlarni tahlil qilish. 2. Tahlil natijalari bo'yicha standartlar ro'yhatini shakllantirish. 3. Shakllantirilgan ro'yxatga asosan standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtirish.	2025-yil davomida (har chorakda)	TR va SBDAOB (D.Xodjkariev), Standartlar instituti (D.Qodirov), XXB (A.Orifboev)	O.Tohirov, T.Mashanpin
	3. Standartlar institutida tashkil etilgan Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi uchun sun'iy intellekt asosida tarjima qilish dasturini yaratish. Moliyalashtirish manbalari: Davlat byudjeti mablag'lari. Mas'ullar: Tashqi ishlar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar.	1. Standartlar institutida tashkil etilgan Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi uchun sun'iy intellekt asosida tarjima qilish dasturini yaratish. 2. Yaratilgan dasturda tarjima qilish ishlarini amalga oshirish. 3. Dasturni doimiy texnik qo'llab-quvvatlash.		Standartlar instituti (D.Qodirov), RvaAXTB (F.Usmanov)	
Farmonning 16-ilovasi "2025-yilda atrof-muhitni asrash yo'nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatdagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasi"					
15.	2-band. Noturar bino-inshootlarda energiya samaradorligi bo'yicha majburiy sertifikatlash tizimini joriy etish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Xalqaro miqyosda tan olingan ko'rsatkichlarga muvofiq noturar binolarda energiya samaradorligini sertifikatlashni takomillashtirish. 2. Noturar binolar uchun energi samaradorligini sertifikatlarini beradigan energi auditorlarini akkreditatsiya qilish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Noturar binolarda energiya samaradorligini sertifikatlarini bosqichma-bosqich majburiy etib belgilash.	1. Xalqaro miqyosda tan olingan ko'rsatkichlarga muvofiq noturar binolarda energiya samaradorligini sertifikatlashni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga kiritish. 2. Noturar binolar uchun energiya samaradorligi sertifikatlarini beradigan energiya auditorlarini akkreditatsiya qilish tartibiga takliflarni ishlab chiqish va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga kiritish.	2025-yil mart 2025-yil aprel	MBBTSAOB (A.Dodoev), "O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev) MBBTSAOB (A.Dodoev), "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" (A.Zakirov)	Direktor o'rinbosarlari (O.Tohirov)

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	Muddat: 2025-yil aprel, 2025-yil dekabr, 2026-yil yanvar. Moliyalashtirish manbalari: Korxonalar mablag'lari. Mas'ullar: Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, O'zenergoinspeksiya, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.	3. Noturar binolarda energiya samaradorligi sertifikatlarini bosqichma-bosqich majburiy etib belgilash yuzasidan takliflarni Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga kiritish.	2025-yil may	MBBTSAOB (A.Dodoev), "O'zTest" DM (J.Kattaxodjaev)	
16.	3-band. Yangi qurilgan turarjoy va noturar bino va inshootlarda minimal energiya sarfini ta'minlash. Amaliy chora tadbirlar: 1. Xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan va xalqaro miqyosda tan olingan ko'rsatkichlarga muvofiq binolarning energiya samaradorligining minimal mezonlarini hisoblashning yangi metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish. 2. Binolar energi samaradorligining minimal mezonlarini hisoblash metodologiyasiga muvofiq kVt/m kompleks ko'rsatkichini hisoblaydigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish. 3. Loyihani ishlab chiqish va binolarni foydalanishga topshirish jarayonida barcha yangi va kapital ta'mirlangan binolar uchun energiya samaradorligining minimal mezonlariga mosligini ta'minlash. Moliyalashtirish manbalari: Korxonalarning o'z mablag'lari. Muddat: 2025-yil sentyabr, 2025-yil dekabr, 2026-yil fevral. Mas'ullar: Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, O'zenergoinspeksiya, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.	1. Xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan va xalqaro miqyosda tan olingan ko'rsatkichlarga muvofiq binolarni qurilishida ishlatiladigan mahsulotlar xavfsiziligiga aloqador hujjatlarni o'rganish. 2. Energiya sarflaydigan qurilmalar uchun energiya samaradorligiga doir texnik reglamentni ishlab chiqish. 3. Ishlab chiqilgan loyihani Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga yuborish.	2025-yil 30-aprel 2025-yil 25-iyun 2025-yil 29-iyul	TR va SBDAOB (D.Xodjikaev), Standartlar instituti (D.Qodirov)	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov)
17	39-band. Sanoat yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda atrof-muhitga salbiy ta'sirlarining oldini olishga	1. Xorijiy davlatlarda sanoat yo'nalishlarining airof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha sohalar	2025-yil may	SRTSAOvaEKB (S.Kasimov), Tizim tashkilot rahbarlari	Direktorning birinchi o'rinbosari (A.Abdukayumov),

T/r	Ustuvor vazifalar (Farmon)	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Nazorat
	qaratilgan "Eng maqbul texnologiyalar" axborot-texnik ma'lumotnomalarini joriy qilish. Amaliy chora tadbirlar: 1. Xorijiy davlatlarda sanoat yo'nalishlarining airof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha sohalar kesimida "Eng maqbul texnologiyalar" axborot-texnik ma'lumotlarini o'rganish. 2. O'rganishlar natijalariga ko'ra ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganish. 3. Xorijiy davlatlarning "Eng maqbul texnologiyalar" axborot-texnik ma'lumotlarini moslashtirish bo'yicha taklif kiritish. Moliyalashtirish manbalari: Korxonalar mablag'lari. Muddat: 2025-yil iyun, 2025-yil sentyabr, 2025-yil dekabr. Mas'ullar: O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	kesimida "Eng maqbul texnologiyalar" axborot-texnik ma'lumotlarini o'rganish. 2. O'rganishlar natijalariga ko'ra ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini o'rganish. 3. Xorijiy davlatlarning "Eng maqbul texnologiyalar" axborot-texnik ma'lumotlarini moslashtirish. 4. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil avgust 2025-yil noyabr		Direktor o'rinbosarlari O.Tohirov, T.Mashanpin